

Umidjon Djumaniyazov

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi

**BYUDJET TASHKILOTLARIDA BYUDJETDAN TASHQARI
MABLAG'LAR BO'YICHA MOLIVAVIY AKTIVLAR HISOB VA
AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH**

Annotatsiya: Maqolada moliyaviy aktivlar va ularning mohiyati, tashkilot faoliyati uchun moliyaviy aktivlarning zaruriyati, byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag'lar hisobiga olinadigan moliyaviy aktivlar, jumladan asosiy vositalar, tovar moddiy zahiralari hisobi va nazoratini tashkil etishda amaliyotdagi islohotlar hamda byudjet tashkilotlari uchun moliyaviy aktivlar hisobi va nazoratida yuzaga keladigan muammolar, ularni bartaraf etish borasidagi ilmiy qarashlar hamda byudjet hisob ishlarini takomillashtirish yuzasidan taklif va tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: davlat byudjeti, byudjet tashkilotlari, asosiy vosita, byudjet hisobi, moliyaviy aktivlar, davlat moliyaviy nazorati.

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ УЧЕТА И АУДИТА ФИНАНСОВЫХ
АКТИВОВ ВНЕБЮДЖЕТНЫХ ФОНДОВ В БЮДЖЕТНЫХ
ОРГАНИЗАЦИЯХ**

Аннотация. В статье рассмотрены финансовые активы и их природа, необходимость финансовых средств для деятельности организации, финансовые активы, полученные за счет внебюджетных фондов в бюджетных организациях, в том числе основных средств, практические реформы в организации учета и контроля товарного хозяйства. В статье рассмотрены проблемы учета и контроля материальных резервов, финансовых активов бюджетных организаций, представлены проблемы, научные взгляды на их устранение, а также предложения и рекомендации по совершенствованию работы бюджетного учета.

Ключевые слова: государственный бюджет, бюджетные организации, основные средства, бюджетный учет, финансовые активы, государственный финансовый контроль.

IMPROVING ACCOUNTING AND AUDIT OF FINANCIAL ASSETS FOR EXTRA-BUDGET FUNDS IN BUDGET ORGANIZATIONS

Abstract: In the article is given information about financial assets and their nature, the necessity of financial assets for the organization's activities, financial assets received at the expense of extra-budgetary funds in budget organizations, including fixed assets, practical reforms in the organization of accounting and control of commodity material reserves, and financial assets accounting and control for budget organizations are discussed in the article. problems, scientific views on their elimination, and proposals and recommendations regarding the improvement of budget accounting work are presented.

Key words: state budget, budget organizations, fixed assets, budget accounting, financial assets, state financial control.

KIRISH

Xalqaro amaliyotdan ma'lumki, milliy taraqqiyotni, xususan, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishda davlat byudjetini samarali yo'naltirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bizga ma'lumki, Byudjetdan ta'lim, sog'liqni saqlash, infratuzilma, xavfsizlik va ijtimoiy ta'minot kabi muhim sohalarni moliyalashtirish ko'zda tutilgan. Bu fuqarolarning hayot sifatini yaxshilashga yordam beradi. Shuningdek, Fiskal siyosat (solliqlar va davlat xarajatlari) orqali byudjetdan turg'unlik yoki inflyatsiya kabi iqtisodiy tebranishlarni yumshatish uchun foydalanish mumkin. Iqtisodiy tanazzul davrida hukumat talabni rag'batlantirish uchun xarajatlarni oshirishi mumkin.

Davlat byudjeti soliqqa tortish va mablag'larni ijtimoiy dasturlarga qayta taqsimlash orqali daromadlar tengsizligini kamaytirishga yordam beradi. Bu ijtimoiy adolat va jamiyatning barqaror rivojlanishiga turtki bersa, byudjetdan infratuzilma va boshqa muhim tarmoqlarga sarmoya kiritish uchun foydalanish mumkindir, bu esa o'z navbatida iqtisodiy o'sishga va ish o'rinlari yaratilishiga sabab bo'ladi. Shunday qilib, davlat byudjeti iqtisodiy siyosatning asosiy quroli bo'lib, jamiyat hayotining ko'p jabhalariga ta'sir ko'rsatadi va davlat va iqtisodiyotning o'zaro ta'siri markazida turadi.

Milliy iqtisodiyotdagi keng ko‘lamli islohotlar davrida byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha moliyaviy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirish muhim jarayonlardan biri hisoblanadi. Bu, tashkilotlar uchun moliyaviy mustaqilligini ta‘minlashda va moliyaviy nazoratni kuchaytirishda mukim ro‘l o‘ynaydi. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘larning moliyaviy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirishning muhimligiga qarab, tashkilotlarning moliyaviy boshqaruvini mustahkamlash va moliyaviy natijalarni haqiqiy tarzda o‘rganish, moliyaviy ochiqlik va islohotni ta‘minlash, shuningdek, moliyaviy hisob-kitobning haqiqiylikini ta‘minlashga hozirgi kunda muhim ahamiyatga egadir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR RO‘YXATI

Tadqiqotda, byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha moliyaviy aktivlar hisobi va auditini takomillashtirishning muhimligi ko‘rsatilgan. Bu jarayonlar tashkilotlar uchun moliyaviy mustaqilligini ta‘minlash va moliyaviy nazoratni kuchaytirishda katta ahamiyatga ega. Bu holatda, mahalliy va xorijiy iqtisodchi olimlar o‘z ilmiy ishlarida moliyaviy aktivlar va amortizatsiyaga oid muhim jarayonlarni boshqarish uchun yordam berishning talablarini ko‘rsatib o‘tishganlar. Buning bilan birga, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobini yuritish va moliyaviy hisobotlarini tuzishning usullari va tartibotiga oid ilmiy tadqiqotlar amalga oshirilgan.

Rossiyalik olimlar D.A. Odaxovskaya va G.G. Pechennikova tomonidan asosiy vosita va nomoddiy aktivlarni hisobga olish usullari va amortizatsiya hisobi qiyosiy usullarda o‘rganilib, bu jarayonda hisob ishlari va xarajatlarini kamaytirish hamda soliq hisobotlarini takomillashtirish borasida tavsiyalar berilgan. Bu, moliyaviy aktivlar va amortizatsiyaga oid muhim jarayonlarni samarali boshqarishda qo‘llaniladigan yondashuvlar va metodikalar haqida tajribali olimlar tomonidan ta‘kidlangan. Shu bilan birga, bu tavsiyalar moliyaviy faoliyatning samarali va ishonchli boshqarilishida yordam berishi kutilgan bo‘lgan yaxshi moliyaviy amaliyotning rivojlantirilishiga xizmat qilishi mumkin[1].

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlari A.A.Ostonokulov va A.S.Ramazonovlarning olib borgan ilmiy ishlari, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari hisobi va hisobotining nazariy-uslubiy asoslarini tadqiq etgan holda, byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari bo‘yicha [2] daromadlari va xarajatlarining vujudga kelishi hamda ularning

hisobini yuritishning amaliy jihatlari, byudjetdan tashqari mablag‘lar harakatiga oid moliyaviy hisobotlarni tuzish va taqdim etish tartibi ochib berilganligi va byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘lari harakatiga oid moliyaviy hisobot ko‘rsatkichlari [3] tahlil qilinib, tegishli xulosalar shakllantirilganligi bilan ahamiyatlidir.

Iqtisodchi Z.U. Xamidova tomonidan byudjet tashkilotlarida ichki nazorat va ichki audit xizmatini samarali tashkil etish yo‘llari, ichki auditni tashkil etishning alohida jihatlari, ichki auditni takomillashtirish bosqichlari, tashkilotda ichki nazorat va ichki auditning o‘zaro aloqasi, byudjet tashkilotlaridagi ichki audit xizmatini to‘g‘ri tashkil etilishi bo‘yicha yondashuvlar ko‘rib chiqilgan[4].

Yurtimiz iqtisodchi olimi A.Sh.Kuliboyev davlat tibbiyot muassasalari misolida byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larini boshqarish va buxgalteriya hisobini samarali tashkil etish masalasida olib borgan ilmiy ishida davlat tibbiyot muassasalari tomonidan byudjet va byudjetdan tashqari mablag‘larning maqsadli sarflanishi [5], mablag‘lardan foydalanish samaradorligini aniqlash hamda ularning moliyaviy natijalari to‘g‘risidagi ma‘lumotlarning doimiy monitoringini tashkil qilish muhimligiga e‘tibor qaratgan.

N.F.Isxakova tomonidan asosiy vositalar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talablariga asosan hisobga olishni amaliyotga tatbiq qilishning nazariy va amaliy jihatlari tadqiq qilingan[6].

Z.B.Suyunova tomonidan asosiy vositalar auditini takomillashtirishning asosiy yo‘nalishlari, auditorning bir qator ishchi hujjatlardan samarali foydalanish bo‘yicha takliflar hamda auditorlik tavakkali xatarini baholashning uslubiy yondashuvlari o‘rganilgan[7].

D.X.Pulatov va M.N.Eshmuradovlar tomonidan olib borgan ilmiy ishlarida byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablag‘larining tashkilot hisobraqamiga to‘liq kelib tushishi va ushbu mablag‘lardan foydalanishda ichki nazoratni sifatli tashkil etishni ko‘rib chiqilgan. Ular, bu jarayonning tashkilotlar uchun ko‘proq manfaatlar olib kelishiga va mavjud mulk va boshqa imkonlardan samarali foydalanishni ta‘minlashiga e‘tibor qaratishadi[8]. Shunday qilib, ular tadbirkorlikni yanada rivojlantirish imkonlarini kengaytirishga qaratilgan. Bu, byudjet tashkilotlarining moliyaviy faoliyatini samarali boshqarishda, mablag‘lardan foydalanishda chuqurroq nazoratni amalga oshirishda, va xususan, ichki nazorat tizimini mustahkamlashda muhim o‘rin egallaydi.

A.R.Suvanqulov, A.E.Isaqovlar tomonidan byudjet tashkilotlarining byudjetdan tashqari mablagʻlari harakati toʻgʻrisidagi hisobotlarning tarkibi [9], ularni tuzish va taqdim etish tartibini takomillashtirish borasida ilmiy izlanishlar olib borilgan.

S.Tashnazarov tomonidan tovarmoddiy zahiralar tannarxini shakllantirish va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari [10] hamda buxgalteriya balansida zahiralar tarkibini takomillashtirish boʻyicha takliflar ishlab chiqilgan. Lekin, ushbu xorijiy va mahalliy olimlar oʻz ilmiy izlanishlarida byudjet tashkilotlarida hisob va nazoratni takomillashtirish borasida izlanishlar olib borganiga qaramay, aynan nomoliyaviy aktivlari hisobi va nazoratini tashkil etish boʻyicha yetarlicha ilmiy tadqiqot olib borilmaganligi, ushbu mavzuda izlanishlar olib borishimizga sabab boʻldi.

TADQIQOT METODALOGIYASI

Byudjet hisobi standartlari talablari, moliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini tashkil etishda, davlat byudjeti hisobi standartlari talablari bilan tanishish va ulardan amal qilish muhimdir. Bu standartlar, moliyaviy aktivlarning amalga oshirilishiga doir belgilangan standartlarni oʻrganish, ularning amal qilishidan chiqadigan taʼsiriga duch kelsa, moliyaviy faoliyatning samarali boshqarilishida yordam beradi. Tahlil, analiz, sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya bu muhim tadqiqot usullari, moliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini tashkil etishda qoʻllaniladi. Sintez, taqqoslash, induksiya va deduksiya esa, maʼlumotlarni birlashtirish, oʻzaro bogʻlanishlarini aniqlash va mantiqiy xulosalar chiqarishda yordam beradi. Ular, moliyaviy faoliyatni boshqarish, maʼlumotlarni toʻplash, hisob-kitoblarni tuzish, nazoratni oʻtkazish va hisob-kitoblarni audit qilish boʻyicha qoʻllaniladi.

TAHLIL VA NATIJALAR

“Byudjet tashkilotlarining moliyaviy hisobot koʻrsatkichlari”ning tahlili byudjet tashkil etishda moliyaviy aktivlarning chuqur tushunilishiga yordam berishi mumkin. Quyidagi moliyaviy hisobot koʻrsatkichlariga eʼtibor qaratayotgan holda ularning taʼrifini va salmogʻini tahlil qilsak: Aktivlar, tashkilotning umumiy moliyaviy sabablar hisobiga jalb qilingan resurslardir. Bu xarajatlar, daromadlar va mahsulotlar oʻz ichiga oladi. Aktivlar tashkilotning faoliyatining samaradorligini,

moliyaviy boshqaruvini ta'minlaydi. Passivlar tashkilotning moliyaviy majburiyatlarini aks ettiradi. Bu qarzlar, qarzga soliq tartibi, kapital va boshqa majburiyatlar uchun moliyaviy ta'minotlarni o'z ichiga oladi. Kapital tashkilotning o'z moliyaviy qo'llab-quvvatini ifodalaydi.

Moliyaviy boshqaruvning samaradorligi moliyaviy resurslarni rentabellik darajasiga bog'liqdir. Byudjeti tashkilotlarining byudjetdan tashqari moliyaviy resurslarni realizatsiya qilishda unumdorlik masalasi alohida o'ringa chiqadi. Bu moliyaviy hisobot ko'rsatkichlari bo'yicha muammolarni tahlil qilish tashkilotning moliyaviy holatini tushuntirishga va moliyaviy faoliyatini samarali boshqarishga yordam beradi. Moliyaviy aktivlar va passivlar orasidagi farqni hisobga olish, kapitalni o'lchash, daromadlarni va xarajatlarni taqqoslash tashkilotning moliyaviy muvofiqligini o'rganishga yordam beradi.

1-Jadval

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha 2023 yillik ijrosi[11]

№	Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar nomi	Reja	Ijro	farqi	% (foizda)
	Respublika byudjetidan ajratiladigan mablag'lar, jami	206 682,3	203 637,5	-3 044,8	98,5
1.	Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi	39 293,6	39 124,1	-169,5	99,6
2.	Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi	6 495,9	6 331,0	-164,9	97,5
3.	Sog'liqni saqlash vazirligi	4 279,9	4 148,7	-131,2	96,9
4.	Madaniyat vazirligi	1 077,8	1 054,5	-23,3	97,8
5.	Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi	3 044,4	2 886,6	-157,8	94,8
6.	Qishloq xo'jaligi vazirligi	1 768,0	1 657,3	-110,7	93,7
7.	Suv xo'jaligi vazirligi	3 282,7	3 234,2	-48,5	98,5
8.	Energetika vazirligi	814,8	682,5	-132,2	83,8
9.	Transport vazirligi	6 565,9	6 281,9	-284,0	95,7
10.	Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi	1 087,4	1 079,6	-7,8	99,3
11.	Yoshlar siyosati va sport vazirligi	1 672,3	1 646,2	-26,1	98,4

Ushbu jadvaldan foydalanib shuni xulosa qilishimiz mumkin. Umumiy ravishda, respublika byudjetidan ajratiladigan jami mablag'lar 206 682,3 mln so'mdan 203 637,5 ga kamayib, -3 044,8 mln so'mni tashkil etgan. Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi 2023-yilda ajratilgan mablag'lar jami 39 293,6 mln so'm bo'lib, ijro farqi -169,5 mln so'm, foizda esa 99,6% ko'rsatilgan. Oliy ta'lim,

fan va innovatsiyalar vazirligiga ajratilgan mablag'lar jami 6 495,9 mln so'm bo'lib, ijro farqi -164,9 mln so'm, foizda esa 97,5% tashkil etgan. Sog'liqni saqlash vazirligiga 2023-yilda ajratilgan mablag'lar jami 4 279,9 mln so'mni tashkil etgan, ijro farqi –esa 131,2 mln so'mni, foizda esa 96,9%ni tashkil etgan. Madaniyat vazirligiga ajratilgan mablag'lar jami 1 077,8 mln so'm bo'lib, ijro farqi -23,3 mln so'mni, foizda esa 97,8% ko'rsatgan. Qurilish va uy-joy kommunal xo'jaligi vazirligi ajratilgan mablag'lar jami 3 044,4 mln so'm bo'lib, ijro farqi -157,8 mln so'm bo'lib, foizda esa 94,8%ni tashkil etgan. Qishloq xo'jaligi vazirligi ajratilgan mablag'lar jami 1 768,0 mln so'm bo'lib, ijro farqi -110,7 mln so'mni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Suv xo'jaligi vazirligiga ajratilgan mablag'lar jami 3 282,7 mln so'm bo'lib, foizda 98,5%ni tashkil etganini ko'rishimiz mumkin. Energetika vazirligi 2023-yilda ajratilgan mablag'lar jami 814,8 mln so'mni tashkil etgan bo'lsa, transport vazirligiga esa ajratilgan mablag'lar 6 565,9 mln so'mni tashkil etgan. Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligiga ajratilgan mablag'lar jami 1 087,4 mln so'm bo'lib, ijro farqi -7,8mln so'm, foizda esa 99,3% ko'rsatilgan. Yoshlar siyosati va sport vazirligi 2023-yilda ajratilgan mablag'lar jami 1 672,3 mln so'm bo'lib, ijro farqi -26,1mln so'mni , foizda esa 98,4%ni tashkil etgan.

2-Jadval

O'zbekiston Respublikasining respublika byudjetidan birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar bo'yicha 2023 yillik ijrosi[12]

№	Birinchi darajali byudjet mablag'larini taqsimlovchilar nomi	Reja	Ijro	farqi	% foizda
1.	Davlat aktivlarini boshqarish agentligi	13,2	11,9	-1,3	90,1
2.	Statistika agentligi	203,3	203,3	-0,1	100,0
3.	Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi	27,3	26,1	-1,2	95,4
4.	O'zbekiston Milliy axborot agentligi	34,1	33,5	-0,6	98,3
5.	Strategik islohotlar agentligi	36,9	30,6	-6,4	82,8
6.	Milliy antidoping agentligi	6,0	5,1	-0,9	84,5
7.	Madaniy meros agentligi	331,2	303,1	-28,0	91,5
8.	Ijtimoiy himoya milliy agentligi	1 272,8	1 173,7	-99,2	92,2

Berilgan ma'lumotlarga qarasak, ajratilgan mablag'larning farqi eng katta va foizda qancha o'zgarishni ko'rsatadi. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi 2023-yilda taqsimlangan mablag'lar 13,2 mln so'mni, ajratilgan mablag'lar 11,9 mln so'mni tashkil etgan. Statistika agentligiga taqsimlangan mablag'lar 203,3 mln

soʻmni, ajratilgan mablagʻlar esa 203,3 mln soʻmni tashkil etgan. Bular orasidagi farq -0,1 mln soʻm, yoki foizda 100,0%ni tashkil etgan. Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi taqsimlangan mablagʻlar 27,3 mln soʻm boʻlsa, ajratilgan mablagʻlar 26,1 mln soʻmni tashkil etganini koʻrishimiz mumkin. Oʻzbekiston Milliy axborot agentligiga taqsimlangan mablagʻlar 34,1 mln soʻmni, ajratilgan mablagʻlar esa 33,5 mln soʻm boʻlganini koʻrishimiz mumkin. Strategik islohotlar agentligi taqsimlangan mablagʻlar 36,9 mln soʻmni tashkil etgan boʻlsa, ajratilgan mablagʻlar esa 30,6 mln soʻmni tashkil etgan. Madaniy meros agentligiga taqsimlangan mablagʻlar - 331,2 mln soʻmni tashkil etgan boʻlsa, ijtimoiy himoya milliy agentligiga taqsimlangan mablagʻlar 1 272,8 mln soʻmni tashkil etgan. Ijtimoiy himoya milliy agentligi ajratilgan mablagʻlar 1 173,7 mln soʻm boʻlgan boʻlsa, madaniy meros agentligiga esa ajratilgan mablagʻlar - 303,1 mln soʻmni tashkil etganini koʻrishimiz mumkin.

3-Jadval

Davlat maqsadli jamgʻarmalari daromad va xarajatlari 2023-yil koʻrsatkichlari[13]

T/r	Koʻrsatkichlar	Daromadlar	Transfertlar	Xarajatlar
	Jami	52 423 464,0	30 677 424,4	73 609 857,7
1	“El-yurt umidi” jamgʻarmasi	19 403,5	200 000,0	196 671,8
2	Byudjetdan tashqari Pensiya jamgʻarmasi	39 805 397,8	13 797 450,0	53 589 403,7
3	Bandlikka koʻmaklashish davlat jamgʻarmasi	155 179,1	317 300,0	478 660,0
4	Jamoat ishlari jamgʻarmasi	10 782,0	121 000,0	176 866,0
5	Bogʻdorchilik va issiqxona xoʻjaligini rivojlantirish jamgʻarmasi	334 318,5	146 000,0	494 579,7
6	Byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamgʻarmasi	1 001,2	10 830,6	18 499,8
7	Tadbirkorlik faoliyatini qoʻllab-quvvatlash davlat jamgʻarmasi	427 646,0	915 000,0	718 056,7
8	Turizmni qoʻllab-quvvatlash jamgʻarmasi	171 000,0	15 000,0	205 880,6
9	Oila va xotin-qizlarni qoʻllab-quvvatlash davlat maqsadli jamgʻarmasi	143 601,0	50 000,0	100 324,6
10	Davlat tibbiy sugʻurtasi jamgʻarmasi	16 660,6	3 251 408,5	3 331 344,7
11	Taʼlim kreditini moliyalashtirish jamgʻarmasi	162 346,3	1 947 172,5	150 000,0

3- jadvalda berilgan ma'lumotlarda davlat maqsadli jamg'armalarining daromadlar, transfertlar va xarajatlar uchun mablag'lar quyidagicha: "El-yurt umidi" jamg'armasi daromadlar 2023-yilda 19 403,5 mlrd so'mni, byudjetdan tashqari pensiya jamg'armasi 39 805 397,8 mlrd so'mni, bandlikka ko'maklashish davlat jamg'armasi esa 155 179,1 mlrd so'mni tashkil etgan. Jamoat ishlari jamg'armasi transfertlar 121 000,0 mlrd so'mni, bog'dorchilik va issiqxona xo'jaligini rivojlantirish jamg'armasi 146 000,0 mlrd so'mni, byudjetdan tashqari Respublika maqsadli kitob jamg'armasi 10 830,6 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash davlat jamg'armasi 915 000,0 mlrd so'mlik transfertlarni tashkil etgan. 2023-yilda turizmni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi xarajatlari 205 880,6 mlrd so'mni, oila va xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash davlat maqsadli jamg'armasi 100 324,6 mlrd so'mni, davlat tibbiy sug'urtasi jamg'armasi 3 331 344,7 mlrd so'mni tashkil etgan bo'lsa, ta'lim kreditini moliyalashtirish jamg'armasining xarajatlari 150 000,0 mlrd so'mni tashkil etgan.

Yuqoridagilarni inobatga olganda, byudjetdan tashqari mablag'larning moliyaviy aktivlar hisobi bir jumla bilan aytganda, tashkilotning byudjetdan tashqari mablag'larni qanday amalga oshirishi, qanday maqsadlar uchun ishlatishi va ularni qanday natijalarni taqdim etishi haqida ma'lumotlarni o'z ichiga oladi. Bu mablag'lar bilan qanday loyihalar va jarayonlar amalga oshirilganligi va ularning moliyaviy natijalari hisobga olinadi. Shuningdek, ushbu jarayonda moliyaviy audit ham muhimdir. Moliyaviy audit byudjet tashkilotlari moliyaviy auditni amalga oshirish orqali moliyaviy islohotlarini, hisob-kitobning to'g'ri olinishini va qonun va tartibotlarga mos keluvchi hisob-kitob tizimini ta'minlash uchun harakat qilishlari kengroq tushuntiriladi. Audit, moliyaviy natijalarni taqdim etish, qonun va tartibotlarni buzishga olib keladigan risklarni aniqlash hamda tashkilotning moliyaviy boshqaruvini mustahkamlashda muhim ahamiyatga egadir

XULOSA

Moliyaviy aktivlar hisobi va audit, byudjet tashkilotlarining moliyaviy mustaqilligini ta'minlash va moliyaviy nazoratni kuchaytirishda katta ahamiyatga ega. Ushbu jarayon, tashkilotlar uchun ishonchli axborot tizimini ta'minlaydi va moliyaviy faoliyatni samarali boshqarishda muhim rol o'ynaydi. Tashkilotlar va moliyaviy nazorat organlari o'rtasidagi ishonch va hamkorlikni kuchaytiradi va

davlat qonunlariga rioya qilish uchun muhimdir. Bu jarayon, moliyaviy intizomning yangilash va rivojlantirilishida ham katta rol o'ynaydi. Ma'lumotlar, turli xil fikrlarni va ilmiy tadqiqotlarni o'z ichiga olgan holda, byudjet tashkilotlarida hisob va nazoratning takomillashtirishiga yordam beradi. Davlat byudjeti hisobi standartlari va mahalliy hisob-kitoblari standartlari esa moliyaviy faoliyatni boshqarish va hisob-kitoblarni tuzishda yordam beradi. Ular, samarali va maqsadli moliyaviy faoliyatni ta'minlashda muhim rol o'ynaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Д.А. Одаховская, Г.Г. Печенникова Бухгалтерский и налоговый учет основных средств, нематериальных активов и амортизационных отчислений в целях развития и совершенствования подходов к оценке имущества компании Известия Байкальского государственного университета, №1 113-122 ст, 2019 г.
2. Ramazonov A. et al. Directions for improving accounting in budget organizations during the digital economy //International Finance and Accounting. – 2021.– T. 2021. – №. 2. – C. 23.
3. Ostonokulov A. Improvement of methodology for accounting of extra-budgetary resources of public educational and medical institutions //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2021. – T. 296. – C. 06029.
4. Xamidova Z.U. Byudjet tashkilotlarida ichki audit va moliyaviy nazorat xizmati faoliyatini takomillashtirish. i.f.f.d. (PhD) diss. avtoreferati. –T.:TMI, 2021. –58 b.
5. Kuliboyev A.Sh. Davlat tibbiyot muassasalarida boshqaruv hisobini tashkil etish bosqichlari. Moliya va Bank ishi Jurnali, – № 1, 84–89 b. 2022 y.
6. Isxakova N.F. Asosiy vositalar hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari talabi bo'yicha yuritishning dolzarb masalalari "Xalqaro moliya va hisob" ilmiy elektron jurnali. – № 1, fevral, 2023 yil. <https://interfinance.uz>
7. Suyunova Z.B. Asosiy vositalar auditini takomillashtirish. Iqtisodiyot va ta'lim Jurnali, 6-son 155-159 betlar. 2022-yil
8. Pulatov D.X., Eshmuradov M.N. Byudjet tashkilotlarida rivojlantirish jamg'armasi hisobi va nazoratini takomillashtirish. Eurasian journal of academic research Volume 2 Issue 02, February 2022 536-543 r

9. Suvanqulov A.R., Isaqov A.E. Byudjet tashkilotlarida byudjetdan tashqari mablag‘lar bo‘yicha moliyaviy aktivlar hisobi va nazoratini tashkil etish. Eurasian journal of academic research Volume 2 Issue 02, February 2022 552-559 r

10. Tashnazarov S. Tovar-moddiy zahiralar tannarxi va ularni moliyaviy hisobotda aks ettirish masalalari. “Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 2017 yil

11. <https://www.imv.uz/static/respublika-byudjetidan-birinchi-darajali-byudjet-mablaglarini-taqsimlovchilarga-ajratilgan-mablaglar-2>

12. <https://www.imv.uz/static/respublika-byudjetidan-birinchi-darajali-byudjet-mablaglarini-taqsimlovchilarga-ajratilgan-mablaglar-2>

13. <https://www.imv.uz/static/qoraqalpogiston-res-byudjeti-viloyatlar-va-toshkent-sh-mahalliy-byudjeti-daromadlari-3>